

PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTIDA O'QITUVCHINING MAHORATI VA AYRIM MASALALARI

Mamarasulov Ikromjon Zaylobiddinovich

Farg'ona Shahar madaniyat bo'limi tasarrufidagi 6-sonli mahsus madaniyat markazida tashkil etilgan Navo to'garak rahbari.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagoglarning qanday shaxs ekanliklari, ularni ta'lim berish jarayonida o'zini tutishlari, dars berishda qo'llaniladigan metodlar, bolalar bilan qanday shug'ullanish kerakligi hamda shu masalalar borasida Sharq mutafakkirlarimizni fikrlari keltirilgan. Yana unda har bir pedagog bilishi lozim bo'lgan, ba'zi bir odob – axloq masalari to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchi, Abu Ali ibn Sino, tanbeh, xushmuomala, didaktik, ziyraklik, irodaviylik, kuch, poklik, samimiylik.*

Mustaqil Respublikamizning oldida turgan asosiy vazifalardan biri - yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Respublikamizda taraqqiyot va o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Maktablarimiz ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z mustaqil Vatanimizdan faxrlanish tuyg'usiga boy kishilarni tarbiyalashi kerak. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli muammolardan biridir. Xalq ta'limi tizimida hal qiluvchi inson - o'qituvchidir. O'qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta'lim mazmunini egallagan bo'lishlari kerak. Pedagog xodimlar o'zlarining kasb ko'nikmalari, muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart ekanligi "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" da ta'kidlanadi. Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlarning⁴ ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Sharqning buyuk allomasi, qomusiy olimi Farobiy – muallimning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni vaa uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. "O'qituvchi, - deydi Forobiy, - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarni to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi», - deb ta'kidlaydi. Navoiy bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish to'g'risida g'amxo'rlik qilgan. Uning fikricha, nur keltiradi, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, farzandlarni bilimli qiladi.

⁴ Sharq mutafakkir allomalari

Demak, xalqni ma'rifatli qilishda maktabning roli kattadir. U bu xususda fikr yuritir ekan, eski maktablarda domlarning bilimi hoayat cheklangan, ular ta'lim-tarbiyada mutlaqo xabarsiz, lekin diniy bilimlar yetarli bo'lmasa ham, diniy rasm-rusumlarni bajarishga mohir, ruhoniylarga, amaldorlarga ta'zimkor va davlatga sadoqatli kishilar bo'lgan. Bunday muallimlarning vazifasi ko'pincha masjidi imomlik yoki so'fiylik qilish, har-xil diniy marosimlar va urf-odatlarda qatnashishdan iborat edi. Ularni Alisher Navoiy "Maktab tutuvchi - gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir», deb ta'rif beradi. Shoirning bunday muallimlarga bergan ta'rifi ularning haqiqiy qiyofasini ochib beradi. Ular g'oyatda raximsiz, bag'ritosh, aft-angorlaridan doim zahar tomib turadigan kishilar bo'lgan. Zero, o'sha paytda maktablar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlash, mavjud muallimlarning saviyasini oshirish, o'qitish usullarini yaxshilash masalalari bilan hech kim qiziqmagan va bu ishlar bilan shug'ullangan muassasa ham bo'lmagan.

O'qituvchining har jihatdan ibrat va namuna bo'lishi ta'lim va tarbiya garovi ekanligiga ishora qilgan. O'qituvchining kasb mahoratini tarbiyalashning mohiyati to'g'risidagi mulohazalar «Qobusnoma», «Xotamnoma», «Qutadg'u Bilig»⁵ kabi buyuk asarlarda ham bayon etib berilgan. Chunki bu asarlarning barchasi odobnomalarning xuddi o'zginasi bo'lganligi sababli ularda tarbiyachi-murabbiyning o'ziga xos xislatlarining bosqichlari ifodalab berilgan.

Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina - o'qituvchi bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb aytganlar. Bu haqiqatni yoshi qancha bo'lishidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar, barcha o'qituvchilar yaxshilab bilib olishlari lozim.

Hozirgi sharoitda Jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir. Zamonaviy maktablarda o'qituvchilar qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi - sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. Ayni paytda o'qituvchi o'z oldiga qo'yadigan asosiy talablar quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilish;
- bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- yosh va pedagogik-psixologiya, pedagogika, psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustaqil bilimga ega bo'lib, o'z

⁵ Sharq mutafakkirlarining dunyoga mashhur eng noyob asarlari.

kasbi sohasi bo'yicha Jahon fanida erishilgan yangi yutuqlar hamda kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

- ta'lim-tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari va pedagogik taktikaga ega bolishi shart.

O'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalarni o'zining amaliy faoliyatida keng miqyosda foydalanishi lozim. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchini ijodkor bo'lishini, fanning turli muammolari yuzasidan erkin fikrlar yurita olishini, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni mustaqil hamda ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi o'z ustida doimo ishlashi, mustaqil bilim egallashi, kasb mahoratini takomillashtirishi, malakasini oshirishi faoliyatining oshirishda zaruriy shartlardandir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, Sharq va G'arb mutafakkirlari «har bir inson ilm-fan, uning mazmunidan voqif bo'lishi kerak, ilm olib aqliy kamol topishi kishining yoshligidan to umrining oxirigacha davom etmog'i lozim» g'oyasini ilgari surishadi. Ular barcha guruhdagi ma'naviy qadriyatlarning mohiyatida eng oliy tuyg'u — insonparvarlik yotadi, deb fikrga kelishadi. Allomalarning ta'kidlashicha, insonparvarlik — insonning sharafi, vijdoni va imonining mahsuli hisoblanadi.

Insonparvarlik mazmunan axloq-odob qoidalarini o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni insonparvar qadriyati negizida mehr-shafqat, muruvvat va oqibat, saxiylik, sahovat, diyonat, himmat kabi axloqiy-ma'naviy xususiyatlar o'z ifodasini topgan. Lekin hozirgi kunda ba'zi bir uchrab turadigan, pedagoglar orasidagi odobsizlik, o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan munosabatidagi qo'polliklar, adolatsizliklar hozir xam uchrab turibdi. Shu kabi muommolarni bartaraf qilish uchun esa biz yuqorida o'qituvchining qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligini, qanday ishlarni amalga oshiri kerakligini ko'rib chiqdik. O'qituvchi ta'lim berish jarayonida yangiliklardan foydalanishi, innovatsion texnologiyalar asosida bolalarni qiziqtirishi uchun turli metodlardan foydalanishi mqsadga muvofiqdir. Bu usul barcha uchun ham hamda yosh o'sib kelayotgan avlodning mukammal shaxs sifatida kamol topishi uchun muhim vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hoshimov K, Pishonova S. «Pedagogika tarixi»-T, «O'qituvchi», 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. Barkamol avlod. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori-T. 1997.
3. Sayidahmedov H. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T. 2003.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000 yil.
6. A.Zunnunov, A.U.Mahkamov. «Didaktika». T. «Sharq» 2006 yil.